

# O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2022 yil yanvar-iyul oyi)

## 1. Sanoat mahsuloti

2022-yil yanvar-iyul oylarida respublika korxonalarini tomonidan **293,0** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **105,5** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi **82,9** foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **9,6** foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **7,0** foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish **0,5** foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,8 %** ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarida ishlab chiqarish **15,3 %** ga, o'sishi bo'ldi.

Shu bilan birga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida **0,2 %**ga oshdi, suv ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish korxonalarida **13,3 %**ga kamaydi.

Ishlab chiqaradigan sanoat hajmining o'zgarishiga avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish korxonalarida (2021-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **130,3 %**), shuningdek, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish korxonalarida (**124,0 %**) ishlab chiqarish hajmining o'sishi sabab bo'ldi.

Shu bilan birga ishlab chiqarish sanoatida, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish (2021 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **68,2 %**), hamda koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida (**94,7 %**), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida (**95,7 %**) ishlab chiqarish hajmining pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida metall rudalarini qazib olish korxonalaridagi (2021-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **108,4 %**) ishlab chiqarish hajmining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga xom neft va tabiiy gaz qazib olish korxonalarida (2021-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **97,0 %**) ishlab chiqarish hajmida pasayish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati **129,1 %**ni tashkil etdi, shu bilan birga ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushi **34,7 %**ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **34,8 %**ni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi esa **65,2 %**ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2021-yilning mos davriga nisbatan **121,8 %**ni, nooziq-ovqat tovarlari o'sish sur'ati esa **133,4 %**ni tashkil etdi.

## **2. Inflyatsiya darajasi**

2022-yilning yanvar-iyul oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **6,4 %** ni tashkil etdi.

Yil boshidan oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha 7,7 % ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasining umumiy o'sish sur'atiga 3,27 foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.) ta'sir etdi. Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari ushbu davrda 6,7 % ga qimmatlashib umumiy ko'rsatkichning 2,34 f.d. o'sish sur'atini, xizmatlar esa 3,5 % ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni qo'shimcha 0,81 f.d. o'sish sur'atini ta'minladi. Yig'ma ko'rsatkichning o'sish sur'atiga ta'siri tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiy o'sish sur'atining 50,9 % i, nooziq-ovqat mahsulotlari hissasiga 36,5 % i va xizmatlar hissasiga 12,6 % i to'g'ri keldi.

Yig'ma INI o'sish sur'ati tarkibida oziq-ovqat inflyatsiyasining ta'siri yaqqol namoyon bo'ldi. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining 7,7 % ga oshishi hisobiga 2022-yilning yanvar-iyulida INI 3,08 f.d. yuqoriladi. Salmoq ko'rsatkichlarida ushbu tovarlar hissasiga kuzatilayotgan tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sirining 47,0 %idan ortig'i to'g'ri keldi. Ushbu bo'lim tovarlari orasida donli ekinlar va yorma mahsulotlari narxlarining oshishi yetakchilik qildi. Shunday qilib, mazkur guruhga kiruvchi mahsulotlar narxlari joriy yil boshidan 22,4 %ga oshdi. Bundan tashqari, shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar narxlari ham sezilarli darajada oshdi (20,0 %). Narxlarning pasayishi meva-sabzavot mahsulotlarida qayd etildi. Shunday qilib, sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar 5,4 % ga, mevalar va yong'oqlar 5,0 % ga arzonlashdi.

Boshqa bo'limlar orasida narxlarning sezilarli oshish darajasi restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari (9,7 %), dam olish, sport va madaniyat (9,4 %) xizmatlari narxlarida qayd etildi.

## **3. Qurilish ishlari**

2022-yilning yanvar-iyul oylarida **70685,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **106,3 %**ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 18549,5 mlrd. so'm yoki 26,2 % yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 40101,0 mlrd. so'm yoki 56,7 %, norasmiy sektor sub'ektlari tomonidan 12034,7 mlrd. so'm yoki 17,1 % bajarildi.

## **4. Chakana savdo tovar aylanmasi**

2022-yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **159 939,8** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,2 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2021-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **28,2 %** ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **22,2 %** ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subektlarining chakana tovar aylanmasi 2021-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **6,3 %** ga ko'paydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **69,3 %** ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **8,5 %** ulush bilan **13 528,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

### **5. Tashqi savdo aylanmasi**

2022-yilning yanvar-iyul oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **28102,9** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan **6 343,9** mln. AQSh dollariga yoki **29,2 %** ga ko'paydi. Eksport hajmi **11 272,4** mln. AQSh dollariga (o'tgan yilning mos davriga nisbatan **38,1 %** ga o'sish) va import **16 830,5** mln. AQSh dollariga o'tgan yilning mos davriga nisbatan **23,8 %** ga o'sdi).

Eksport tarkibida ham o'sish kuzatildi, shu jumladan: hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari) yog'lar va mumlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan - **17,4** b.

(18,4 mln. dollargacha)ga, ichimliklar va tamaki **3,3** b. (40,8 mln. doll.)ga, turli xil tayyor buyumlar **32,7 %** (143,3 mln doll), Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar **74,6%** (289,0 mln.doll)ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar **10,9 %**.(76,5 mln. doll.)ga ko'paydi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (shu jumladan ehtiyot qismlar va butlovchi qismlarga) - **36,7 %** (1 113,7 mln. doll.), sanoat tovarlari **30,9 %** (523,3 mln. doll.), kimyo mahsulotlari (va ulardan tayyorlangan mahsulotlar)- **33,6 %** (421,4 mln. doll.) to'g'ri keladi.

### **6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari**

2022-yilning yanvar-iyul oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **190,8** trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **14,9 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlarning **30,7 %** ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 6,6 punkt), transport xizmatlari **9,9 %**ga (o'sishdagi ta'siri 2,3 punkt), savdo xizmatlari **8,1 %** ga (o'sishdagi ta'siri 2,1 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **22,8 %**ga (o'sishdagi ta'siri 1,4 punkt), boshqa xizmatlar **15,2 %** (o'sishdagi ta'siri 0,5 punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari **16,3 %** (o'sishdagi ta'siri 0,5 punkt), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **10,6 %** ga (o'sishdagi ta'siri 0,3 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi savdo xizmatlari (**47,6** trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **108,1 %**), moliyaviy

xizmatlar (44,2 trln.so‘m, 130,7 %) va transport xizmatlari (41,7 trln.so‘m, 109,9 %)ga to‘g‘ri keladi.

### 7. Korxonalar va tashkilotlar soni

2022-yil 1-avgust holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) **566,0** mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 498,2 mingta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 8,8 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 9,5 foiz) tashkil etdi. Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng yuqori o‘sishi Samarqand (16,3 foiz), Xorazm (13,9 foiz), Qashqadaryo (11,3 foiz), Navoiy (10,7 foiz), Farg‘ona (9,4 foiz), Surxondaryo (9,0 foiz), Jizzax (8,8 foiz), Andijon (8,2 foiz) viloyatlari va Toshkent shahrida (7,5 foiz) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining eng yuqori o‘sishi savdo (15,0 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (11,9 foiz), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (10,1 foiz), axborot va aloqa (7,5 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (7,5 foiz), tashish va saqlash (6,9 foiz), sanoat (4,7 foiz) hamda qurilish (3,4 foiz) faoliyat turlariga to‘g‘ri kelgan.

2022-yil yanvar-iyul oyida respublikada 57,8 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 55,7 mingtani tashkil etdi.

2022-yil 1-avgust holatiga ko‘ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 14 546 tani tashkil etdi. O‘tgan yil bilan solishtirganda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 12,4 % ni yoki 1 602 tani tashkil etdi. Ulardan 6 267 tasi qo‘shma korxonalar va 8 279 tasi xorijiy korxonalar tashkil etgan.